

LAQABLARNING MORFOLOGIK XUSUSIYATLARI

Nazarov Ziyoviddin Muhammadrasul o'g'li

*O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi
Farg'ona akademik litseyi ingliz tili fani bosh o'qituvchisi
nazarovziyoviddin@gmail.com*

Zokirov Muxtorali Turdaliyevich

*Farg'ona davlat universiteti, tilshunoslik kafedrası professori,
filologiya fanlari nomzodi*

Annotatsiya: Maqolada o'zbek tilshunosligidagi laqablarning morfologik xususiyatlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: til, laqablar, so'z, morfologik, xususiyatlar, tilshunoslik.

Аннотация: В статье описаны морфологические характеристики прозвищ в узбекском языкознании.

Ключевые слова: язык, прозвища, слово, морфологические, особенности, лингвистика.

Abstract: The article describes the morphological characteristics of nicknames in Uzbek linguistics.

Keywords: language, nicknames, word, morphological, features, linguistics.

Laqablar ham o'zbek tilining lug'at sostavini tashkil qilgan boshqa so'zlar kabi so'z yasallishining umumiy qonun-qoidalariga bo'ysunadi. Professor A.G'ulomovning ta'kidlashicha, o'zbek tilida so'z yasallishining quyidagi usullari mavjud: grammatik, leksik-semantik, fonetik usullarda yasalladi. Ma'lumki, grammatik so'z yasallishi ikki xil bo'ladi. Affiksatsiya usuli, kompozitsiya usuli. Ko'pchilik laqablar asosan affiksatsiya usuli bilan yasalladi. Ma'lumki, bu usul ot yasallishining eng mahsuldor usulidir. Laqablarning ham affiksatsiya usuli bilan yasallanganlari ot turkumiga xos bo'ladi. Hozirgi o'zbek tilidagi -chi affiksi ot yasovchi affikslar orasida eng mahsuldor affiksdır. Bu affiks shaxs bildiruvchi otlar yasaydi.

1. Laqablarga -chi affiksi qo'shilib biror kasb bilan shug'ullanuvchi shaxs bildiruvchi ot yasaydi. Masalan: Bu kishi o'z shahrimdan, bir mahallalik, mendan bir-ikki yosh kattaroq Omonboy-Tursun pichoqchining o'g'li o'z o'rtog'im edi.

Qaymoq bozorining burilishida mahkamaning boshida Ilhom samovarchining kattakon choyxonasi bo'lib bunda grammafond chalinadi.

-chi affiksi laqablarga qo'shilib asosan anglashilgan ish harakatni bajaruvchi, shu kasb bilan shug'ullanuvchi shaxs oti yasaydi.

Tug'unboy tergovchi shu yilning o'n ikkinchi kuni omonatini topshirdi degan gap tarqalganda rayon ahli yoqasini ushladi.

-chi affiksi bilan yasalgan laqablar Boburning «Boburnoma» asarida ham uchraydi.

Bir-ikki navbat kutib bularning tersanganini Muhib Ali qo'rdi xalifa bilan Mulla boboga aytur menga ham imo qildilar.

Xusrav ko'kaldosh va Ahmad parvonachini bir pora kishi bila o'ruq o'trusiga yuborildi.

Bu gaplar garchand hazil bo'lsa ham, ularda bir qadar jon bor. Ammo Tojivoy nisholdachining aytgan gapi ancha ibratli edi.

-Shoirlik bu nisholdaga o'xshaydi.

2. -chi affiksi kasb, hunar, mashg'ulotning konkret sohasi bilan shug'ullanuvchi laqablar yasaydi.

Pandigonlik Madumar karnaychi boshqalarga qaraganda berilib, terilib pishib chalyapti. Miskarnayning og'zini osmonga qaratganda zarbli ohang olisolislargacha borib yurakni zirqiratib yuboradi, pastga qaraganda oyoqlar ostidagi zamin titrab ketgandek bo'ladi.

Bu misoldagi karnaychi laqabi konkret soha bilan shug'ullanuvchi shaxs otini yasagan.

Otash - dukchi oltmishlarga yaqin burushiq yuzida ko'zlari teran joylashgan, yelkasi chiqiq, ko'rkam, oppoq soqolli qovjiroq bir chol.

Bu tekstdagi dukchi laqabi konkret soha bilan shug'ullanuvchi kishiga nisbatan ishlatilgan.

Sherqobil podachiga povestka kelgan kuni biz bolalar o'z o'rtog'imizday yaxshi ko'rgan Sherdon dev to'g'risida bo'lib o'tgan hangomaning guvohi bo'ldik.

Bu misoldagi podachi laqabi konkret soha bilan shug'ullanuvchi shaxs oti yasalgan.

Eshkakchi - qayiqda eshkak eshuvchi shaxs.

3. -chi affiksida yasalgan laqablar narsa-predmetni tutuvchi va sotuvchi kishilarga nisbatan ishlatiladi.

Joni baliqchi Mati baliqchiga ko'z qiri tushishi bilan tanidi.

Bu misolda -chi affiksida yasalgan laqab narsa-predmetni tutuvchi odamlarga nisbatan ishlatilgan.

G'ani qiyshiq qamatganini Nabi biladimi oqsoqol? –dedi Ashir gulchi og'zidagi nosini sholcha tagiga tuflarkan.

Bu tekstda narsa predmetni sotuvchi kishiga nisbatan ishlatilgan.

4. –chi affiksi laqablarga qo 'shilib asosdan anglashilgan hodisani, ish-xarakterini, qilish xarakteriga ega bo 'lgan, shunday harakatni bajarish odati kuchli bo 'lgan shaxs bildiruvchi ot yasaydi.

Boshqacha qilib aytsek, Obid shikoyatchi, chunki unga bermasang ham arz qilishga qo'ysang bo'ldi, Biron yerdan kelgan odamga darrov bu yerdagilarning zulm, adolatsizlik qilayotganlari to'g'risida shikoyat qilishga tushadi.

-chi affiksidan tashqari –*kash*, -*dor*, -*do'z* kabi affikslar ham ma'lum sohaga oid kasb-hunar bildiruvchi laqablar yasaladi.

-kash affiksi so 'z anglatgan predmetni yurgizuvchi shaxs otini yasaydi.

Chin muhabbat va sadoqat haqida gap ketganda mahallamizdagi kimningdir o'g'li bilan kelini orasidagi janjal sabab bo'lib, choyxonada o'tirgan Asom quruq, Karim indamas, Yo'ldosh aravakash o'zaro bahslashib qolishdi.

Bitta o'zi emas shekilli, aylanay ovsinjon, Abdusamat traktorchi, innay keyin annu Nusrat perma, innay keyin Karim juvozkashning o'g'li.

-*do'z* affiksi ham otdan ot yasaydi.

Chol haqoratli nazar bilan menga qaradi va ko'kragiga qotib ketgan barmoqlari bilan urib:

Ko'p yaxshi taniding. Badalimat kovushdo'z burun egasi o'lgan.

-*dor* affiksi negiz anglatgan predmetning egasi shaxs oti yasaydi. Bu affiks qo'shilganidan hosil bo'lgan laqablar Boburning «Boburnoma» asarida uchraydi.

Birxomolini uch bo'lib, bir xissasini men yedim, birini Gadoyi tog'oyi yana birini Abdullo kitobdor g'aroyib guzaro kayfiyat qildi: ul martakim namoz shomda beklar yig'ilganda kengashga chiqa olmadim.

Odina kuni oyning yigirma ushbu yurtda Xindolni Moximga berib, xatlar bitib Yusuf Ali rikobdorni Qobulga yuborildi.

-*paz* affiksi ham otdan ot yasaydi. Bu qo'shimcha ovqat-taom bildiruvchi so'zlarga qo'shilib, undan anglashilgan taom turini tayyorlovchi shaxs oti yasaydi.

Saydulla asli pismiq odam emasmi, Egamberdi baliqpaz bilan xufiyona til topishib, har kecha ko'zaga tushgan o'ljani arzon garovga suvlab turgan ekan.

Laqablar kompozitsiya usulida ham yasaladi. Bunga misol qilib tubandagi namunalarni ko'rsatish mumkin: oqsoqol, qo'rboshi, qiziltayoq, olako'z, ko'zoynak kabilalar. Misollar: Mirsaid oqsoqol ulaming suhbatiga ziyraklik bilan quloq solayotgan bolaga qarab oldida:

-Qaydam...-dedi.

Zokir qo‘rboshi qizillardan qochib, tog‘larda berkinib o‘zidan kichikroq qo‘rboshilarni oldiga solib quvib kun o‘tkazyapti.

Ernazar olako‘z uchun ham kechagi kun o‘shanday bo‘lib, har tarafga jo‘natiladigan elchilarning oxirgisini ham jo‘natib bo‘lib, xondan ruxsat so‘radi-da kechqurun Gulzeboni olib shahar tashqarisidagi to‘rangilzorda uxlamay tong ottirdi.

Deraza oldida qo‘llarini qo‘ltig‘iga tikib turgan ozg‘ingina «ko‘zoynak» o‘zicha nimanidir ming‘iray boshladi.

Xulosa qilib aytganda, so‘z yasash usuli bilan hosil bo‘lgan laqablar asosan kasbhunarga oid laqab bo‘ladi va ko‘pchiligi affiksatsiya usuli bilan hosil bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Begmatov E. Nomlar va odamlar. – Toshkent: Fan. 1972.
2. Jonibekova D. Laqablarning ayrim uslubiy xususiyatlariga doir. O‘zbek adabiyotshunosligi va tilshunosligi muammolari. Samarqand. 2010
3. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005) ma’lumotlaridan
4. <https://mpradist.ru/uz/chto-takoe-prozvishche-klichka-kakoe-laskovoesmeshnoe-miloe-prozvishche-pridumat.html>
5. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Laqab>
6. <https://zapchina.ru/uz/horse/insulting-nicknames-for-guys-by-name-what-is-a-nickname-and-how-to-come-up-with-a-nickname/>
7. <https://02stroy.ru/uz/kozyrki-i-navesy/klassnye-niki-na-angliiskom-dlyapamei-psevdonimy-dlya-devushek.html>
8. <https://valenteshop.ru/uz/angliiskie-niki-s-perevodom-dlya-parneiprikolnye-i-krasivye-niki/>
9. <https://dinelli.ru/uz/bolezni/derzkie-niki-dlya-pamei-na-angliiskompsevdonimy-dlya-devushek-krasivye.html>
10. <https://uz.eferrit.com/taxallus/>